

JAZOLARNI VA BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI IJRO ETUVCHI MUASSASA VA ORGANLAR

*Irnazarov Shuhrat TerDU Yuridik
fakulteti jinoyat huquqi va fuqarolik
protsessi kafedrasi o'qituvchisi
Merganova Nasiba Omon qizi
Termiz Davlat Universiteti
Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlar, ularning tizimi va vazifalari hamda ushbu muassasalarning faoliyatini tekshirish va nazorat qilish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jazolarni ijro etuvchi muassasalar, boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi organlar, probatsiya xodimi, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari, voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari.

Biz bilamizki jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Ushbu jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijrosini qaysi muassasa va organlar amalga oshiradi?

Hozirgi kunga kelib respublikamiz jinoiy jazoni ijro etish tizimi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ichki siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, jinoyat-ijroiya siyosati nafaqat bizning respublikamizda, balki qo'shni va xorijiy davlatlarda ham ichki siyosatning eng muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralyapti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi "Ichki ishlar Organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5050-son qaroriga muvofiq ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimi quyidagilardan tashkil topadi: Departament; mintaqaviy muvofiqlashtirish markazlari; jazoni ijro etish koloniyalari, shu jumladan davolash huquqi asosida; tarbiya koloniyasi; tergov hibsonalari; mahkumlar uchun ixtisoslashgan kasalxona; tezkor harakatlar otradi; markaziy omborxona. Departament ichki ishlar organlarining jazoni ijro etish tizimi uchun yagona boshqaruv faoliyatini amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 42-moddasida jazo tushunchasi va maqsadlari ko'rsatilgan bo'lib, unga binoan jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llaniladigan va

mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat ijroiya kodeksining 14 hamda 15-moddalarida bu organlar haqida belgilangan. Unga ko‘ra jarima tariqasidagi jazo O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan ijro etiladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi. Shuningdek, shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, agarda shaxslar ruhiy holati buzilgan tarzda ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan bo‘lsa, bunday shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari Sog‘liqni Saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Alkogolizmga, giyohvandlikka yoki zaharvandlikka yo‘liqqan yoxud ruhiy holati aqli rasolikni istisno etmaydigan tarzda buzilgan mahkumlarga nisbatan — sog‘liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganda esa, jazoni ijro etish muassasalarining davolash-profilaktika yordami ko‘rsatish bo‘limlarida hamda mahkumlarga mo‘ljallangan ixtisoslashgan shifoxonada tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari o‘taydi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan jabrlanuvchidan uzr so‘rash, yetkazilgan zararni to‘lash yoki bartaraf etish kabi majburlov choralari sud tomonidan, maxsus o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish — xalq ta’limi organlari tomonidan ijro etiladi. Bu jinoyat ijroiya kodeksining 15-moddasida belgilangan.

Ushbu muassasa va organlarning vazifalari nimalardan iborat? Mahkumlarga nisbatan jinoiy jazolarni ijro etish, jazoni ijro etish muassasalarida qo‘riqlash va xavfsizlikni ta’minlash, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish, mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, ishga joylashishga va maishiy hayotidagi ehtiyojlarini aniqlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingandan keyin ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, shuningdek, ularning huquqbuzarliklarni sodir etishining oldini olish maqsadida tarbiyaviy ishlar olib borish va jazoni ijro etish muassasalari va davlat unitar korxonalarining moliyaxo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini oshirish, mahkumlarning bandligini ta’minlash kabilar hisoblanadi.

JIKning 4-bobida jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlarning faoliyatini tekshirish va nazorat qilish tartibi belgilangan bo‘lib 16- va 17 -moddalarni qamrab oladi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari ushbu organlarning faoliyatini qonunchilikda belgilangan tartibda tekshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar esa ta’sir choralari ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib boradi.

Bundan tashqari 18- moddada jazoni o'tash joylariga kirish tartibi ham belgilangan.

Davlar hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari, ommaviy axborot vositalari vakillari jazoni ijro etuvchi muassasalarga kirish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) , uning o'rinbosari, hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili ushbu muassasalarga monelihsiz kirish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi xodimlari o'z vakolatlari doirasida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabablari va shart-sharoitlarini o'rganish hamda tahlil qilish maqsadida jazoni ijro etish muassasalariga monelihsiz kirishga, zarur hujjatlar bilan tanishishga haqli.

Jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlarga kirish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Mahkumlarni kino-, foto-, videotasvirga tushirishga va ulardan intervyu olishga ularning yozma roziligi bilan, shuningdek jazoni ijro etuvchi organning ruxsatiga asosan yo'l qo'yiladi. Mahkumlarning xavfsizligini va qo'riqlanishini ta'minlovchi obyektlarni tasvirga olishga jazoni ijro etuvchi muassasaning yoki organning ruxsati bilan yo'l qo'yiladi.

XULOSA: O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi , Ichki ishlar organlari, harbiy qismlarning qo'mondonligi , sog'liqni saqlash organlari va boshqalar Jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi organlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi
2. Jinoyat ijroiya huquqi darslik. 2022
3. Jinoyat ijroiya kodeksiga sharh
4. O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi